

ABDULLA AVLONIY, MAXMUDXO'JA BEHBUDIY VA ABDULLA QODIRIYNING JADIDCHILIK HARAKATIGA QO'SHGAN XISSALARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14261866>

Keldiyeva.Shaxnozaxon.Shuxratovna.

Andijon davlat insitituti ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Adixamjonova Xumora Sherzod qizi, Abdujabborova Umida Oybek qizi,

Muxammadjonova Umidaxon Rustamjon qizi.

Andijon davlat pedagogika insitituti Aniq fanlar fakulteti fizika yo'nalishi talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidlar harakati, uning asosiy maqsadlari, dasturlari va O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri batafsil tahlil qilingan. Jadidlar, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida, ayniqsa, O'zbekistonda ilm-fan, ta'lim va madaniyatni yangilashga intilgan ilm-fan va ma'rifatparvar shaxslar bo'lib, o'z faoliyatlari orqali an'anaviy ta'limotlarni modernizatsiya qilishni, jamiyatni uyg'otishni va milliy o'zlikni saqlashni maqsad qilganlar. Maqolada jadidlarning o'quv tizimi, ijtimoiy islohotlar, va siyosiy jihatlardagi ta'siri, shuningdek, ularning o'zgarishlarga bo'lgan yondashuvlari va islohotlarni amalga oshirishdagi roli yoritilgan. Jadidlar harakati o'zbek tarixida muhim o'rin tutgan va milliy uyg'onishning boshlang'ich bosqichlarini yaratgan.

Abstract. This article analyzes in detail the Jadid movement, its main goals, programs and impact on social and political life in Uzbekistan. Jadids are scientific and enlightened individuals who sought to renew science, education and culture in the territory of Turkestan, especially in Uzbekistan, at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. those who aim to modernize the limots, awaken the society and preserve the national identity. The article describes the impact of the Jadids on the educational system, social reforms, and political aspects, as well as their approaches to changes and their role in the implementation of reforms. The Jadidlar movement played an important role in Uzbek history and created the initial stages of national revival.

Абстрактный. В данной статье подробно анализируется движение Джадидов, его основные цели, программы и влияние на общественно-политическую жизнь в Узбекистане. Джадиды - ученые и просвещенные личности, стремившиеся к обновлению науки, образования и культуры на территории Туркестана, особенно в Узбекистане, в конце 19 - начале 20 века,

пробуждают те, кто стремится модернизировать лимоты. общества и сохранить национальную идентичность. В статье описано влияние джадидов на систему образования, социальные реформы и политические аспекты, а также их подходы к изменениям и их роль в реализации реформ. Движение Джадидлар сыграло важную роль в истории Узбекистана и положило начало начальным этапам национального возрождения.

Kalit so'zlar. Jadidchilik, jadidizm, qozixona, publitistik, modernizatsiya, matbuot, realistic, islohot, Jadidona, Yassaviy, , tatar ziyolilari, mafkura.

Key words. Jadidism, Jadidism, Kazikhona, publicist, modernization, press, realistic, reform, Jadidona, Yassavi, , Tatar intellectuals, ideology.

Ключевые слова. Джадидизм, джадидизм, казна, публицист, модернизация, пресса, реалист, реформа, Джадидона, Яссави, татарская интеллигенция, идеология.

*“Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot yo najot
yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”*

Abdulla Avloniy

Kirish. Jadidchilik yoki jadidizm – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston ,Kavkaz , Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy – siyosiy , ma'rifiy harakati. Jadidchilik dastlab , XIX asrning 90- yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidlar harakati o'zining ko'plab faol vakillari orqali keng tarqaldi. Ularning orasida quyidagi shaxslar alohida ajralib turadi : Maxmudxoja Bexbudiy , Abdulla Avloniy , Abdulla Qodiriylar .

Maxmudxoja Bexbudiy O'zbekistonning buyuk Jadidchi faollaridan biri, ta'lim islohotchisi , adib , publitsist va madaniyat arbobi.U Yassaviy avlodidan. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, mufti darajasiga kotariladi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib , u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qoyadi. U jadidlar harakatining yirik vakillaridan biri sifatida tanilgan va o'zining ta'lim sohasidagi islohotlari , adabiy va siyosiy faoliyati orqali Turkiston hududidagi ijtimoiy yangilanishda muhim rol o'ynagan. Uning ta'limga oid asosiy g'oyalari va islohotlari quyidagilardan iborat edi. Behbudiy yangi turdagi , zamonaviy maktablarni tashkil qilishni boshlagan. U o'zining “Mekteb” maktabi bilan , eski diniy madrasalardan farqli o'laroq , o'quvchilarga nafaqat diniy , balki umumiy ilmiy bilimlar , matematika , geografiya , tabiiy fanlar , tarix va boshqa sohalarda ham ta'lim berishni maqsad qilgan. Ushbu yangi maktablarda pedagogik metodlar o'zgargan va amaliy bilimlarga katta

e'tibor berilgan. Behbudiy „Risolayi asbobi savod“ , „Risolayi jug'rofiyayi umroniy“ , Muntahabi jug'rofiyayi umumiy“ , „Kitobatul atfol“ , „Amaliyoti islom“ , „Tarixi islom“ kabi kitoblarni chop ettiradi.

Behbudi jadidlar harakati doirasida nafaqat ta'lim , balki umumiy ijtimoiy rivojlanishni ham ko'zlagan. U o'zining maqolalari va asarlarida xalqni uyg'onishga , adolatni ta'minlashga va yangiliklarni joriy qilishga chaqirdi. Behbudi yangi ta'lim tizimi va pedagogik metodlarini joriy etish orqali nafaqat o'z zamonasi , balki kelajak avlodlar uchun ham katta meros qoldirdi. Uning g'oyalari, yangilanish va islohotlar haqidagi fikrlari, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo'shildi. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi. Abdulla Avloniy nomi o'tgan XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatlarining, milliy ozodlik harakatlarida hamda yangi usul maktablarining paydo bo'lishida katta hissa qo'shdi. Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo'lgan Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909-yilda „Jamiyat xayriya“ uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917-yillarda matbuotdagi qizg'in faoliyati, ko'plab publitsistik maqolalari bilan „bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag'on, ikkinchi yoqdan el orasiga o'zgarish tuxmini sochg'on“ ham Abdulla Avloniy bo'ldi . Avloniy o'zi nashr etgan „Shuxrat“ nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi. U Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya , kimyo, xandasa , fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanafusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtixonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishiga alohida e'tibor berdi. Abdulla Avloniy jadidchilik harakatini faqat ta'lim bilan cheklamadi, balki adabiyot va matbuot sohasida ham faoliyat yuritdi. U 1912- yilda Toshkentda „Turkiston“ gazetasini nashr etdi. Bu gazeta jadidchilikning ijtimoiy va siyosiy g'oyalarini keng targ'ib qilgan, xalqni ilm-fan va madaniyatga undagan. „Turkiston“ gazetasida Avloniy o'zining ta'lim , siyosat va jamiyat haqidagi qarashlarini e'lon qilib, ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish uchun xalqni birlashtirishga chaqirgan.

Avloniy O'zbekiston jamiyatida keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam berdi. U jadidchilik harakatining nafaqat ilmiy , balki siyosiy ijtimoiy g'oyalarini ham kengaytirib , yangi avlodni ma'rifatli va erkin fikrlovchi insonlar sifatida tarbiyalashga harakat qildi.

Abdulla Qodiriy ijodi 1913-1914- yillarda boshlandi. U shu yillari barcha ilg'or fikrli yoshlar qatori jadidchilik harakatiga qo'shilgan va o'zining ilk asarlarida

ma'rifat, millat taraqqiyoti va hurligi g'oyalari ni targ'ib eta boshlagan. 1919-1920-yillarda "O'tgan kunlar" romanini yozib tugallab, 1926-yilda to'la nashrini e'lon qiladi. Bu to'laqonli realistik ilk o'zbek romani bo'lib, Qodiriyning Jadidona siyosiy qarashlari yuksak badiiy ifodasini topgan asar edi.

Xulosa. Jadidchilik harakati musulmon jamiyatlarida, ayniqsa O'zbekistonda ta'lim va madaniyatni modernizatsiya qilishning dastlabki va eng muhim bosqichini tashkil etdi. U o'zining yangi metodlari, ijtimoiy islohotlar, milliy o'zlikni anglash va ilmiy rivojlanishga bo'lgan qiziqish orqali Markaziy Osiyo va butun musulmon dunyosida katta ta'sir korsatdi. Jadidchilar o'zining g'oyalari bilan o'z xalqini yangilanish va taraqqiyotiga yetaklashda muhim rol o'ynadilar va bu harakatning izlari hozirgi kunga qadar seziladi.

ADABIYOTLAR.

1. N. To'xliyev va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009 – 784-bet.
2. Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. „Zabarjad media“, 2022 – 432-bet.
3. O'zbek sovet entsiklopediyasi. 2-jild. T., 1979.
4. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. „O'zbekiston adabiyoti va san'ati“, 1990-yil 19,26-yanvar.
5. Qosimov Behbudiy Karvonboshi. „Yoshlik“ jurnali, 1990-yil, 1-son.
6. Aliev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. T., 1994.
7. Ahmedov S. O'limdan qo'rqmagan mutafakkir. „Sovet O'zbekistoni san'ati“, 1989-yil, 2-son.
8. Rizaev Sh. „Padarkush“ yohud Samarqand tarixidan lavhalar". „Vatan“ gazetasi, 1994-yil, 39-son.
9. Oybek, Asarlar, 16-jild (Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li), T., 1979; Qodiriy H., Otam haqida, T., 1983; Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida, T., 1988; Boqiy N., Qatlnoma, T., 1992; Qo'shjonov M., O'zbekning o'zligi, T., 1994;
10. Normatov U., Qodiriy bog'i, T., 1995; Normatov U., „O'tgan kunlar“ hayrati, T., 1996. Umarali Normatov, Bahodir Karimov.
11. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. T.: Fan, 1966.
12. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. T., 1994.
13. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. T.: Fan, 1977.
14. Karimov B. 20 asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi. FFD dissertatsiyasi, T., 2002

15. Keldiyeva, S. TURKISTONDAGI JADID YANGI USUL MAKTABLARINING AHAMIYATI. Interpretation and researches.

16. Shaxnozaxon, K. JADID MA'RIFATPARVARCHLIK NAMOYONDALARINING IJTIMOY-SIYOSIY, FALASAFIY QARASHLARI. World scientific research journal, 234-238.

17. Shaxnozaxon, K. JADID ZIYOLILARINING MILLIY MA'NAVIY ATIMIZDAGI AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ , 35-38.